



## TALABALARNING SHAXSIY FIKIRLARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TAQDIMOTLARNING ROLI HAQIDA

Botirov D.B.<sup>1</sup>, Majidov J.M.<sup>2</sup>, Norboyev N.N.<sup>3</sup>

<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsent

<sup>2</sup>Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi

<sup>3</sup>Jizzax davlat pedagogika instituti, 2 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5673051>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 05- Noyabr 2021

Chop etildi: 10- Noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Mutaxassislik,  
Informatika, Umum ta'lim  
maktablari

### ANNOTATSIYA

*Metod – bu bilimga erishish usuli, olimning ma'lum tarzda tartibga solingan, ongli va izchil faoliyatidir. Metod bilish usuli sifatida o'rganilayotga obyektning jihatlari va xossalarini laboratoriyada, ilmiy-tadqiqot moslamasida, sinov stendida, shuningdek tadqiqotchining miyasida aks ettirish usuli*

Elektron taqdimotning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi imloniyatlari nimalardan iborat bo'ladi:

-talabalarning bolajak sohasiga, ilmiy laboratoriyalariga virtual kirib borishi, uning ochiqqligi;

-anglab olish murakkab bo'lgan jarayonlar, xodisalar, ko'rinishlar va ularning turli modellarini kuzatish;

-biror muammoli murakkab jarayonlarning boroshini, bajarilishini jonli tarzda namoishini bshqarish orqali xis etish, anglash;

-namoish etishda tasir holatiga duqqatni jalb etish, ta'sirchan-hissiyotlilik, muvofiq-mantiqiylik usullariga tayanish.

Elektron taqdimotdan foydalanilganda, uning o'ziga xos tomoni aunq bir vaqt belgilanganligidir. Berilgan vaqt ichida berilgan materialni o'zlashtirib, mohiyatiga yetib olmasligi mumkin. Bunday kamchiliklarga qaramasdan electron

taqdimotning boshqa turdagi o'quv materiallaridan – ma'ruza konspekti, bosma nashrlar, electron qo'llanmalardan qiymati ancha baland.

Informatika va axborot texnologiyalari sohasida ishlayotgan mutaxassisning chuqur bilimga ega bo'lishligi zamonaviy axborot jamiyatida muhim rol o'ynaydi.

Informatika va axborot texnologiyalari sohasida ishlayotgan mutaxassisning muhim ko'rsatkichlaridan biri o'zining shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirish bo'lib, bu unga innavatsion g'oyalarni, hamda o'zining axborotlashtirish sohasida yangi natijalarni olib keladi.

Yangi avlodning axborotlashtirish sohasidagi standarti quyidagilar bilan aniqlanadi:

- chuqur bilim;
- bilimni o'z faoliyatida ishlata olish;
- aniq sohada o'zining ijodiy sifatlarini ko'rsatish.



Umum ta'lim maktablari, akademik liqey, kasb - hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida o'qitishning yangi forma va metodlaridan foydalanish talab qilinadi. Bunday talabga javob berish uchun o'qitishning yangi modelini izlashga to'g'ri keladi, bunda informatika va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

Bunday vositalardan biri elektron taqdimotdir. Yangi shaxsiy va tayyor multimediya vositalaridan foydalanish ta'limda axborot texnologiyalarni qo'llashga kiradi.

Ushbu izlanishlarimizda biz, o'qitishning samaradorligini oshirish maqsadida, bo'lg'usi o'qituvchilar axborot texnologiyalaridan foydalanishda muraklab strukturali elektron xujjatlardan (misol sifatida elektron taqdimotlardan) foydalanishga yordam berishni mo'ljalladik. Biz talaba o'qituvchilar yuqori darajadagi elektron xujjat bilan ishlash ko'nikma va malakasiga ega bo'lsin deb hisoblaymiz. Zamonaviy multimediya vositalari taqdimot yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lib, bunga yuqori sifatli grafika va video yaratish, ovoz berish, animatsiyalar va maxsus effektlar kiradi. Windows muhitida multimediya taqdimotlarini yaratish uchun ko'plab dasturiy vositalar (PPT Create, Image (Open Office), Makromedia Flash, Media Mixer) mavjud. Biz ulardan Microsoft Power Point 2007 dasturidan foydalanamiz.

Dastlab, muallif yoki mualliflar guruhi ishga kirishishdan oldin reja bo'yicha electron taqdimotning senariyi, mazmunini tuzib, ifodalab olish va quyidagibajarilishi lozim bo'lgan masalalarga yechim topishi kerak:

-mashg'ulotning maqsadi?  
-qandayholatdagi bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan?

-yo'naltirilgan maqsadning aniqligi qanday?  
-qaralayotgan kursning tuzilishi, mundarijasi qanday?

-qaralayotgan bo'limlarga qanday etibor beriladi?

-talabalarning qo'llanma bilan ishlari qanday darajada?

-tayyorlanayotgan ish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va maslahatlar shakli qanday?

-qo'llanmadan samarali foydalanish uchun eslatmalar.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari elektron taqdimot yaratish bilan "Informatika va axborot texnologiyalari" fani orqali tanishadilar va u bilan ishlaydilar. Kurs davomida dastlab elektron taqdimotning elementlari bilan tanishadilar. Keyinchalik, e'tibor o'quv taqdimotiga qaratiladi, bunda oddiy va murakkab taqdimotlar xamda boshqa effektlarning metodik tomonlari e'tiborga olinadi, tayyor taqdimotlar ta'lim resursi sifatida qaraladi.

Kursning asosiy masalasini biz, aniq programma asosida talabalarda o'zining masalasini echishda "ma'lumotnoma" bo'lishini ko'ramiz. Mustaqil izlanish va kompyuter texnologiyalarini egallash kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ma'lumotnomadan foydalanib mustaqil kompyuter texnologiyalarini egallashni biz dastlabki mashg'ulotlardan ko'ra boshlaymiz.


Ma'lumki, dasuriy ta'minotni tezlik bilan o'zgarishi elektron taqdimotni yaratish texnologiyasini o'zgartiradi va uni bosqichma bosqich olib borishga olib keladi. Bundan keyingi takomillashtirish mustaqil faoliyatida amalga oshirilishi zarur. "Informatika o'qitish metodikasi" kursi talabalarda algoritmik fikirlashni, taqqoslash ko'nikmalarini, tahlil qilishni hamda ijodiy qobiliyatlarini to'diq



shakllantiradi. Bu kurs talabalarni kabiyl bilimlarni o'stirishga olib keladi.

O'quvchilarni shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta'limning birinchi o'rindagi masalasidir. Elektron taqdimotlar umum ta'lim maktablardan boshlab o'qitilishi maqsadga muvofiqdir va bu mavzu ta'limning barcha bosqichlarida davom etishi kerak. Bu esa ta'limning uzliksizligini ta'minlash, o'qitishni izchilligi taminlash, predmetlararo aloqadorlikni o'rnatish va informatikani ichki integratsiyasini

ta'minlash, mumta'lim, umummadaniy va intellektual bilim va ko'nikma, o'z bilimini mustahkamligi talabiga javob beradi. Informatika va axborot texnologiyalari sohasida ishlayotgan mutaxassisning chuqur bilimga ega bo'lishligi, umum ta'lim maktabining ham nazariy ham amaliy informatika kursida aniq bir bo'lim ustida izlanish olib borishi orqali aniqlanadi. Quyida talabalarining "Elektron taqdimot" mavzusini o'rganish bo'yicha bosqichlarini keltiramiz.





Kompyuter texnologiyalaridan yetuk mutaxassis bulishning asosiy belgilaridan biri bu, elektron taqdimotni qo'llash va metodlarini professional pedagogik masalani echish darajasiga erishish.

Dars davomida biz talabalarga elektron taqdimot yaratishni egallash kunikmasini hosil qilish sifatli ta'lim resursini yaratishga olib kelishini ko'rsatib o'tamiz.

## References:

1. Yusupova N.N. Informatika fan sohasida ilmiy izlanishlar, metodologiya va zamonaviy yondashuvlar. Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent – 2019. 259-260 bet..
2. Mamarajabov O.E., Raximova N.X., Gulomova A.U. "Ta'limga integratsion yondashuvning nazariy asoslari." Axborot ta'lim makonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari va texnologiyalari integratsiyasi. Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent-2019 yil. 66-67 betlar.
3. Ashurov Sh.A. "Uzluksiz ta'lim tizimida fizika, informatika va axborot texnologiyalarini integratsiyalash." Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnali №2 Toshkent-2005. 52-60 betlar.
4. Fayziyeva M.R. Informatika va axborot texnologiyalari umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. Toshkent. Tasvir, 2020 – 112 bet.
5. Pogorelov A.B. Geometriya 7 -11. Toshkent. O'qituvchi. 1991. 368 bet.
6. M.Aripov, A.Tillayev. Veb-sahifalar yaratish texnologiyalari. EO'Q. Toshkent, 2009. SD.
7. S.M.Xolmuradov, A.I.Tillayev. "Vidio ma'lumotlarni qayta ishlovchi dasturiy vositalar" Multimediali o'quv majmua. 2011 yil. Toshkent. O'zMU.